



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MILLIY
QADRIYATLARGA HURMAT TUYG'USINI TARBIYALSHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Namangan davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi Yuldasheva Dilnoza

Ilmiy rahbar: Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

ANNOTATSIYA. Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish jarayoni chuqur pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning tarixiy ildizlari, jamiyat hayotidagi o'rni, shuningdek globallashuv sharoitida ularni yosh avlodga singdirishning zaruriyati asoslab beriladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liqligi keng yoritilgan. Jarayonning samaradorligini oshirishda o'qituvchi shaxsining o'rni, ta'lim muhiti, sinfdagi tarbiyaviy ishlar, oilaning ta'siri, madaniy-tarbiyaviy merosning uzviyligi ilmiy tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan ta'lim, amaliy topshiriqlar, milliy an'analarga asoslangan tarbiyaviy usullar qo'llanishining afzalliklari asoslanadi. Maqola natijalari boshlang'ich ta'limda milliy-ma'naviy tarbiyani kuchaytirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar bilan yakunlanadi.

KALIT SO'ZLAR: milliy qadriyatlar, ma'naviyat, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, pedagogik jarayon, oila va maktab hamkorligi, ma'naviy immunitet, yosh psixologiyasi, qadriyatlarni shakllantirish, Vatanga sadoqat.



Milliy qadriyatlar har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy ma'naviy tayanch bo'lib, ular millatning o'zligini, tarixiy xotirasini, tafakkurini, odobini, urf-odatlarini, ijtimoiy ongini shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa jamiyatning eng nozik, eng sezgir qatlamini tashkil qilgani bois, ularda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini singdirish jarayoni ham o'ta mas'uliyatli, ham ilmiy asoslangan bo'lishi talab etiladi. Bu yosh davrida bolaning dunyoqarashi endigina shakllanayotgan, qiziqishlar tez o'zgaradigan, eslab qolish qobiliyati yuqori, o'rganishga bo'lgan ehtiyoji kuchli bo'ladi. Shu sababli milliy qadriyatlarni aynan shu bosqichda berish ularning butun hayot yo'lida asosiy ma'naviy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarni o'rgatishning eng birinchi omili — bolaning oila muhitida olgan dastlabki tarbiyasidir. Oila bolaning birinchi maktabi, birinchi ijtimoiylashuv maydoni, birinchi ma'naviy tarbiya o'chog'idir. Bola dastlab atrofdagi odatlarni, kattalarning muomalasini, o'zaro hurmatni, qadriyatlarni, marosimlarni oila bag'rida ko'radi. Ota-onaning gap-so'zi, muomala madaniyati, ajdodlarga hurmati, kattalarga ehtiromi, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati bevosita farzand ongiga singib boradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchisida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni oiladagi tarbiyaviy an'analar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Dastlab, “qadriyat” atamasining kelib chiqishi va mazmuniy shakllanishi ko'p asrlik tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Leksik-etimologik manbalarga ko'ra, ushbu atama arabcha “qadr” (قدر) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u “qiymat”, “baholilik”, “ulug'lik” va “hurmatga sazovorlik” kabi ma'nolarni anglatadi. Arab tilidagi “qadr” so'ziga “-iyat” qo'shimchasi qo'shilishi natijasida umumiy abstrakt tushuncha — “qadriyat” shakllangan. Bu boradagi eng qadimgi dalillar Ibn Manzur tomonidan tuzilgan “Lison ul-Arab” hamda Fayruzobodiy qalamiga mansub “Al-Qomus al-Muhit” lug'atlarida uchraydi; mazkur manbalarda



“qadr” so‘zining “qiymat” va “ulug‘lik” ma’nolarida izohlanganligi qayd etilgan.

Mazkur atama mazmunan ilk bor islomiy falsafa va tasavvuf adabiyotlarida keng qo‘llanila boshlagan. VIII–XII asrlar allomalari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Imom G‘azzoliy kabi mutafakkirlar “ezgulik”, “adolat”, “ilm”, “halollik” singari insoniy fazilatlarini “qadrli xislatlar” sifatida ta’riflab, keyinchalik “qadriyat” tushunchasining shakllanishiga g‘oyaviy zamin yaratganlar. Shuningdek, o‘rta asr turkiy manbalarida ham “qadr bilmoq”, “qadru qimmat”, “qadrli narsa” kabi iboralar uchrab, qadriyatlarning xalq og‘zaki ijodi va turkiy madaniyatdagi o‘rni qadimdan muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu xususta Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy termin sifatidagi “qadriyat” atamasining tizimli shakllanishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Yevropa falsafasidagi aksial yondashuv, xususan Maks Sheler va Nikolay Hartmannning “qiymatlar nazariyasi” (Werttheorie) Markaziy Osiyo ilmiy maktablariga ham ta’sir etgan. Natijada rus tiliga “ценность”, o‘zbek ilmiy adabiyotlariga esa “qadriyat” shaklida o‘zlashgan. Shu davrdan boshlab “qadriyat” tushunchasi axloqiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy tamoyillarni ilmiy izohlashda qo‘llaniladigan asosiy kategoriyalardan biriga aylangan.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida esa mazkur atama yanada keng talqin etilib, milliy o‘zlik, tarixiy meros, urf-odatlar va ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni belgilovchi siyosiy-ijtimoiy kategoriya sifatida mustahkam o‘rnashdi. Bugungi kunda “qadriyat” atamasi nafaqat lingvistik yoki falsafiy tushuncha, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ma’naviy-axloqiy mezon sifatida ham qo‘llanilmoqda. Maktab esa ushbu jarayonning tizimli davom ettiriladigan muhitidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining har bir so‘zi, har bir amali, darsdan tashqari mashg‘ulotdagi har bir yondashuvi bolaning ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘zi milliy qadriyatlarga hurmat



bilan yashamasa, o'quvchiga bu tuyg'uni singdira olmaydi. Shu bois pedagogning ma'naviy-amaliy tayyorgarligi, milliy g'oya va qadriyatlarga e'tiqodi, Vatanga bo'lgan muhabbati, kasbga bo'lgan mas'uliyati jarayonning samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirish, avvalo, o'quv dasturi va darsliklar mazmuni orqali amalga oshiriladi. Xususan, Ona tili, O'qish savodxonligi hamda Tarbiya darslarida berilgan mavzular, xalq og'zaki ijodi namunalarining muntazam qo'llanishi o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, ajdodlar merosiga qiziqish va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Darsliklarda berilgan ertaklar, maqollar, rivoyatlar va dostonlardan olinadigan parchalar o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Chunki mazkur janrlardagi badiiy obrazlar, qahramonlarning fazilatlari, ezgulik va yovuzlikning qarama-qarshiligi, adolat, mehnatsevarlik, halollik singari g'oyalar bolalarda axloqiy tasavvurlarni shakllantirib, ularning ma'naviy qadriyatlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi.

Milliy qadriyatlarga hurmat esa faqat nazariy bilim shaklida emas, balki amaliy faoliyat jarayonida singdirilgandagina barqaror natija beradi. Shu jihatdan maktabdagi an'anaviy va milliy tadbirlarni to'g'ri tashkil etish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, Navro'z bayrami doirasida o'quvchilarga qadimiy marosimlarning ma'naviy mohiyatini tushuntirish, sumalak tayyorlash jarayonida ularni ishtirok ettirish, xalq qo'shiqlarini kuylashga jalb qilish, milliy kiyimlar, hunarmandchilik mahsulotlari va xalq o'yinlari bilan tanishtirish orqali bola milliy merosni bevosita tajriba orqali o'zlashtiradi. Chunki bolalar psixologiyasi shuni ko'rsatadiki, ular ko'rish, ishtirok etish, his qilish va amalda bajarish orqali bilimni tezroq va chuqurroq anglaydilar. Shu bois faol ishtirok — milliy qadriyatlarni barqaror tarzda shakllantiruvchi eng samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.



Milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usining shakllanishida muomala madaniyati ham asosiy omillardandir. Kattalarga salom berish, hurmat bilan muomala qilish, o'qituvchini tinglash, dars jarayonida intizomli bo'lish, o'rtoqlariga mehribon bo'lish, o'zgalarning fikriga hurmat ko'rsatish — bular milliy qadriyatlarning amaliy ko'rinishlaridir. O'qituvchi har kuni sinfda ana shu odatlarni mustahkamlab borsa, asta-sekin o'quvchi xarakteriga singib boradi. Chunki boshlang'ich sinfda berilgan odob-axloq tarbiyasi butun hayot davomida o'zgarmaydigan ruhiy poydevorga aylanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni singdirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati nihoyatda katta. “Odobnoma” daqiqalari, haftaliklar, bayram tadbirlari, ma'naviyat soatlari, muzeylarga sayohatlar, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, xalq ijodi kechalari — bularning barchasi o'quvchini real muhit orqali milliy meros bilan tanishtiradi. Har bir o'qituvchi bunday mashg'ulotlarni muntazam tashkil qilib borsa, bola ongida milliy o'zlik chuqur shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish jamiyatning madaniy barqarorligi va ma'naviy rivoji uchun eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari shakllanadigan eng sezgir davrdir. Mazkur jarayonda o'quvchilarga milliy merosni sevish, qadriyatlarni asrab-avaylash, o'zligiga hurmat bilan yondashish kabi fazilatlarni singdirish milliy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi tasodifiy ravishda shakllanmaydi, balki tizimli, maqsadga yo'naltirilgan, tarbiyaviy-metodik faoliyat orqali rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda ayniqsa xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish, ona tili, o'qish savodxonligi, tasviriy san'at, musiqa kabi fanlarda milliylik ruhini kuchaytirish o'quvchilar ongida milliy o'zlikni uyg'otadi. Mazmunan milliy ruhdagi ertaklar, maqollar,



matallar, rivoyatlar o'quvchining ma'naviy tasavvurini boyitib, ezgulik, halollik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat kabi qadriyatlarni tabiiy o'zlashtirishiga yordam beradi. Didaktik jihatdan qaralganda, bunday materiallar bolaning yosh xususiyatiga mos bo'lib, obrazli fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi, natijada milliy qadriyatlarga nisbatan hissiy munosabat kuchayadi. Bu bosqichda o'quvchilar abstrakt tushunchalarni to'liq anglamasa-da, ular milliylikni ko'proq hissiy-idrokiy qabul qiladi.

Tarbiyaviy jarayonda oilaning o'рни ham muhim bo'lib, o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona uchligi asosida milliy qadriyatlarning izchil targ'ib qilinishi kutilgan natijani tezlashtiradi. Oiladagi mehr-muhabbat, kattalar o'rtasidagi hurmat, mehmondo'stlik, tozalik va tartib kabi an'analar maktab tarbiyasi bilan uyg'unlashganda o'quvchi ongida mustahkam ijtimoiy me'yorlar shakllanadi. Z.Ortiqova o'z tadqiqotida oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillarini aniqlagan.

Milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'qitish metodlari ham alohida ahamiyatga ega. Innovatsion usullardan — klaster, konseptual xarita, muammoli ta'lim, ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari, taqdimotlar — foydalanish o'quvchining faol fikrlashini kuchaytiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar, ya'ni tarixiy ma'lumotlarni o'qish darslarida, xalq hunarmandchiligini tasviriy san'atda, milliy ohanglarni musiqa fanida uyg'unlashtirish milliy g'oyaning tabiiy singdirilishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq ijodiy faoliyat orqali o'rganishga moyil bo'lgani uchun rasm chizish, konstruktorlik, qo'l mehnati, sahnalashtirish kabi mashg'ulotlar ularda milliy kultura elementlarini mustahkamlaydi. Bu jarayonda o'quvchi o'z milliyligidan faxrlanishni, boshqalarning qadriyatlariga ham hurmat bilan qarashni o'rganadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish — murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz davom etadigan



pedagogik jarayon bo'lib, u ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari o'zaro uyg'unlashgan taqdirdagina samarali natija beradi. Pedagogik nazariyalar hamda zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar o'quvchi ongida bosqichma-bosqich, izchil tajriba orqali shakllanadi. Jadid pedagogikasida ilgari surilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi g'oyasi bugungi ta'lim uchun ham dolzarb bo'lib, o'qituvchining kundalik amaliy faoliyatida bu yondashuvlarni tizimli ravishda qo'llashi o'quvchilarning axloqiy qarashlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'lim mazmuni — darsliklar, badiiy matnlar, xalq og'zaki ijodi namunalarining berilishi, ertaklar, rivoyatlar, maqollar va tarixiy lavhalarning qo'llanishi — o'quvchilarda milliy g'urur, o'zlikni anglash va madaniy merosga hurmat kabi fazilatlarining yuzaga kelishiga poydevor yaratadi. Biroq qadriyatlarning haqiqiy singishi faqat bilim berish orqali emas, balki amaliy faoliyatga jalb etish orqali ro'y beradi. Navro'z marosimlarida ishtirok etish, milliy o'yinlarni o'rganish, xalq qo'shiqlarini kuylash, sumalak tayyorlash kabi jarayonlar bolalarda milliy merosni shaxsiy tajriba sifatida qabul qilishga yordam beradi. Bu esa mazkur qadriyatlarning ichki e'tiqodga aylanishini ta'minlaydi.

Milliy qadriyatlarni singdirishda o'qituvchining shaxsiy namunasining o'rni beqiyosdir. Pedagogning milliy merosga munosabati, dars jarayonida qo'llayotgan uslublari, sinfdagi muomala madaniyatini tashkil etish mahorati o'quvchilarning axloqiy qarashlariga bevosita ta'sir etadi. Shu bilan birga, oilaning tarbiyaviy roli ham hal qiluvchi omildir: oila va maktab hamkorligi ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davom etishini, bolada qarama-qarshi tasavvur va chalkashliklar yuzaga kelmasligini ta'minlaydi.

Globalashuv sharoitida yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, milliy identifikatsiyani saqlash, yot madaniy oqimlarni tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biri



bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda milliy merosga tayangan holda mustaqil fikrlash, to'g'ri tanlov qilish, axloqiy mas'uliyatni his etish qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda milliy qadriyatlarni shakllantirish — o'qituvchi, oila, maktab jamoasi va jamiyat institutlarining hamkorlikdagi integral faoliyatiga tayanadigan tizimli jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati kelajak avlodning ma'naviy qiyofasini, Vatanga sadoqatini, xalq merosiga bo'lgan hurmatini belgilab beradi. Milliy qadriyatlar poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyatning ertangi kuni shunchalik barqaror va taraqqiyparvar bo'ladi. Demak, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish nafaqat pedagogik vazifa, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi. Umumiy o'rta ta'lim davlat standarti (O'ZDSt). – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Abdurahmonova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya. – Toshkent: Fan, 2016. – 200 b.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 430 p.
6. Epstein J. School, Family, and Community Partnerships. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 287 p.
7. G'afforova T., Quronova M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 280 b.
8. G'aniyev B. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 340 b.



9. Hasanboeva O., To'rayeva D. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2019. – 356 b.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 208 b.
11. Mahkamova D., Abdullayeva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy rivoji. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 175 b.
12. Matjonov S., O'rinboeva M. Milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 190 b.
13. Qodirova F., Sharipova N. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoni. – Toshkent: Fan, 2020. – 310 b.
14. Saidov A., Qo'shqarov D. Milliy o'zlikni anglashning pedagogik asoslari. – Toshkent: Ma'rifat, 2015. – 215 b.
15. UNESCO. Education for Sustainable Development. – Paris, 2019. – 96 p.
16. Ushinskiy K.D. Chelovek kak predmet vospitaniya. – Moskva: Pedagogika, 1988. – 416 s.
17. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1999. – 480 s.
18. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 240 b.
19. Zunnunov A. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Universitet, 2014. – 220 b.